

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMLARNING KORPUS LINGVISTIKASI ASOSIDA LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI

Jurayeva Iroda Axmedovna,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti dosenti, f.f.n.

e-mail: [irodajuraeva@gmail.com](mailto:irodajuraeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning korpus lingvistikasi asosida leksikografik tavsifi tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy korpus metodlari yordamida shaxs nomlarining qo‘llanish chastotasi, semantik tuzilishi, kontekstual funksiyasi hamda lingvomadaniy xususiyatlari aniqlanadi. Korpus materiallari asosida antroponimlarning real nutqdagi qo‘llanishi ularning an‘anaviy lug‘atlarda berilgan tavsifi bilan qiyosiy ravishda solishtiriladi. Tadqiqot natijalari antroponimlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish bilan birga, korpus yondashuvining zamonaviy leksikografiya rivojida ahamiyatini asoslaydi.

**Kalit so‘zlar:** antroponim, korpus lingvistikasi, leksikografiya, lingvomadaniyat, semantika, chastota, kontekst.

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительный анализ лексикографического описания антропонимов в английском и узбекском языках на основе корпусной лингвистики. В исследовании с использованием современных корпусных методов выявляются частотность употребления, семантическая структура, контекстуальные функции и лингвокультурные особенности личных имён. На основе корпусных данных реальное функционирование антропонимов в речи сопоставляется с их описанием в традиционных словарях. Результаты исследования раскрывают национально-культурные особенности антропонимов и обосновывают научную значимость корпусного подхода в развитии современной лексикографии.

**Ключевые слова:** антропонимы, корпусная лингвистика, лексикография, лингвокультура, семантика, частотность, контекст.

**Abstract.** This article deals with a comparative analysis of the lexicographic description of anthroponyms in English and Uzbek based on corpus linguistics. The study employs modern corpus methods to identify the frequency of usage, semantic structure, contextual functions and linguocultural features of personal names. Based on corpus data, the actual usage of anthroponyms in real discourse is compared with their representation in traditional dictionaries. The results of the study reveal the national and cultural characteristics of anthroponyms and substantiate the scientific significance of the corpus-based approach in the development of modern lexicography.

**Keywords:** anthroponyms, corpus linguistics, lexicography, linguoculture, semantics, frequency, context.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini empirik asosda o‘rganish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa antroponimlar insonni nomlash vositasi sifatida nafaqat identifikatsiya funksiyasini bajaradi, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir shaxs nomi o‘zida ma‘lum semantik ma‘no va madaniy konnotatsiyani mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan, antroponimlar til va madaniyatning o‘zaro bir biri bilan tutashgan tadqiqot obyektidir. Antroponimlar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki ular orqali jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy mentaliteti, diniy qarashlari hamda ijtimoiy qadriyatlar tizimi ifodalanadi. Shu bois, ularni zamonaviy

metodologiyalar asosida, xususan, korpus lingvistikasi yondashuvi orqali o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasi bu tilni katta hajmdagi elektron matnlar (korpuslar) asosida statistik va kontekstual tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy yo'nalishdir. Mazkur yondashuv til birliklarining haqiqiy qo'llanishini aniqlashga xizmat qiladi. J. Sinclair ta'kidlaganidek, tilni real matnlar asosida o'rganish introspektiv yondashuvga nisbatan ishonchliroq natijalarni beradi [9.3]. Shu sababli antroponimlarni korpus asosida tahlil qilish, ularning real kommunikativ jarayondagi funksiyasini aniqlash imkonini yaratadi.

Onomastika nazariyasida antroponimlar insoniyat madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. A.V. Superanskaya shaxs nomlarini ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanishini ta'kidlab, ularning semantik va funksional xususiyatlari jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi [10]. Bu fikr antroponimlarning lingvomadaniy mohiyatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. E. Begmatov "antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material beradigan xususiyatlarni aniqlash"ga qaratadi. Olimning ta'kidlashicha, antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bevosita bog'liqligi, ularda inson ehtiyoji va ijodining namoyon bo'lishi, shuningdek, inson nomlarida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma'naviy hamda etnik qarashlari o'z ifodasini topganligi muhim ahamiyat kasb etadi[11.59].

D. Biber va uning hammualliflari til birliklarini korpus asosida tahlil qilish ularning statistik hamda funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydilar [2]. A. Vejbitskaya esa til semantikasi madaniy konseptlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab, har bir til o'ziga xos "madaniy kod"ni ifodalaydi, degan g'oyani ilgari suradi [11. 9-10 b].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning lingvomadaniy va leksikografik xususiyatlarini korpus lingvistikasi asosida tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv asosida bir qator zamonaviy ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini lingvomadaniy, kognitiv hamda korpus lingvistikasi yondashuvlari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar til birliklarini nafaqat nominativ vosita sifatida, balki madaniy va semantik axborotni uzatuvchi tizim sifatida o'rganish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlar qiyosiy jihatdan o'rganilganda, ularning semantik va madaniy yuklamasida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ingliz tilidagi ko'plab antroponimlar masalan, **King Arthur** ideal hukmdor timsoli, Camelot esa ideal jamiyat modeli sifatida talqin qilinadi. Bu antroponimlar orqali ingliz madaniyatida ritsarlik, adolat va sadoqat qadriyatlari ifodalanadi. **David, John, Michael, Elizabeth** tarixiy-diniy ildizlarga ega bo'lsada, zamonaviy nutqda ular ko'proq neytral identifikatsiya vositasi sifatida ishlatiladi. Bu holat ingliz tilining global xarakteri va

madaniy neytrallikka intilishi bilan izohlanadi. Aksincha, o'zbek tilidagi antroponimlar masalan, **Rustam** epik qahramon sifatida kuch, jasorat va vatanparvarlik timsolidir. Bu obraz fors-tojik va turkiy madaniyatlarda keng tarqalgan. **Barchinoy**, bu obraz ayol go'zalligi, sadoqat va matonat timsoli hisoblanadi. Lingvomadaniy jihatdan u ideal ayol obrazini ifodalaydi. **Dilshod, Saodat, Islom** ko'pincha ijobiy semantik va baholovchi mazmuni ifodalaydi. Bu esa nomlash jarayonida estetik, diniy va axloqiy qadriyatlarining ustuvorligini ko'rsatadi.

Antroponimlarni korpus asosida o'rganish ularning

- qo'llanish chastotasi
- kontekstual funksiyasi
- semantik va pragmatik xususiyatlari
- lingvomadaniy xususiyati kabi jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Korpus lingvistikasi metodlari orqali antroponimlarning qo'llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlashda D. Biber va uning hammualliflari quyidagicha korpus asosida o'rganish til birliklarining statistik xususiyatlarini aniqlash va ularning funksional yuklamasini tushunishda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydilar [3.25]. Masalan, ingliz korpuslarida *John* ismi ko'pincha oddiy identifikatsiya vositasi sifatida qo'llansa, o'zbek matnlarida *Dilshod* yoki *Saodat* kabi ismlar ko'pincha ijobiy konnotatsiyalar bilan birga ishlatiladi. Ingliz tilida korpus natijasiga ko'ra John - 5000 marta, Michael - 3200 marta eng ko'p ishlatiladigan ismlar aniqlanadi. O'zbek tilida korpus natijasiga ko'ra Dilshod - 1200 marta, Bekzod - 950 marta ismlar mashhur ekanligi aniqlanadi.

Shuningdek, korpus tahlili antroponimlarning birikuvchanlik xususiyatlarini (collocations) ham ochib beradi. Masalan, ingliz tilida *Mr. John, Dr. Smith* kabi formal birikmalar keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida *Botir aka, Mahmud amaki, Dilshod aka, Saodat opa, Oysha xola, Zaynab begim, Nuri buvi, Mehri aya* kabi birliklar ijtimoiy munosabatlar va hurmat kategoriyasini aks ettiradi. Bu holat til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. A. Vejbitskaya til semantikasi madaniy konseptlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab, har bir til o'ziga xos "madaniy kod"ni ifodalaydi, degan g'oyani ilgari suradi [12.10]. Mazkur nazariya asosida qaralganda, antroponimlar ham milliy madaniyatning muhim komponenti sifatida talqin qilinadi. Masalan, ingliz tilida **Grace** (mehr-shafqat), **Hope** (umid), **Faith** (ishonch) kabi shaxs nomlari diniy va abstrakt qadriyatlarni ifodalaydi hamda xristian madaniyatiga xos ruhiy-axloqiy tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek tilida esa antroponimlar ko'proq estetik va emotsional mazmun kasb etadi. Jumladan, **Dilshod, Baxtiyor** (baxtli), **Gulbahor** (go'zallik va bahor timsoli) kabi nomlar insonning ijobiy fazilatlari va ruhiy holatini ifodalaydi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinganda, ularning semantik asosida turli madaniy qadriyatlar mujassam ekanligi ko'rish mumkin, ingliz tilida diniy-abstrakt konseptlar ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida estetik va emotsional qadriyatlar yetakchi o'rin egallaydi.

Mazkur nazariy paradigma doirasida antroponimlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki murakkab lingvomadaniy belgilar tizimi sifatida ham qaraladi. Ular denotativ ma'nodan tashqari konnotativ va aksiologik komponentlarni ham o'z ichiga olib, madaniy mazmuni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilidagi diniy asosli antroponimlarning dastlabki semantikasi diaxron rivojlanish jarayonida qisman desakralizatsiyaga uchrab, zamonaviy nutqda ko'proq neytral identifikatsion birlik sifatida qo'llanmoqda. O'zbek tilidagi antroponimlar esa, aksincha, lingvomadaniy va aksiologik yuklamasini nisbatan barqaror saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Masalan, **Saodat**, **Mehribon** kabi nomlar ichki semantik motivatsiyaga ega bo'lib, ular insonning ijobiy fazilatlarini konseptual jihatdan ifodalaydi. Bu holat o'zbek tilida nomlash jarayonining estetik va aksiologik tamoyillarga asoslanganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, antroponimlar til tizimida madaniy-pragmatik funksiyani ham bajaradi. Masalan, o'zbek tilida **-jon**, **-bek**, **-xon** kabi affiksalar komponentlar orqali hurmat, yaqinlik yoki ijtimoiy maqom ifodalanadi. Masalan, **Ma'ruffjon Dilyorjon**, **Ulug'bek**, **Otabek**, bu esa tilning morfologik darajasida madaniy semantikani kodlashning yaqqol namunasidir. Ingliz tilida esa bunday lingvomadaniy ma'no asosan sintaktik va leksik vositalar orqali beriladi, masalan, **Mr.**, **Sir**, **Mrs**, **Miss** bu esa madaniy kodlashning tipologik farqlarini ko'rsatadi. Shuning uchun A. Vejbitskaya tomonidan taklif etilgan "til madaniy kod" konsepsiyasi antroponimlar tizimi orqali empirik jihatdan tasdiqlanadi. Antroponimlar muayyan lingvomadaniy makonda shakllangan konseptual strukturalarning lingvistik realizatsiyasi sifatida namoyon bo'lib, ular orqali milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ideallar ifodalanadi [12.3]. Demak, antroponimlarni qiyosiy-lingvomadaniy tahlil qilish til va madaniyat o'rtasidagi murakkab va ko'p qatlamli munosabatlarni ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Leksikografiya nuqtai nazaridan esa antroponimlar ko'pincha etimologik va izohli ma'lumotlar bilan beriladi. Biroq an'anaviy lug'atlar ko'proq statik tavsifga ega bo'lib, ular real nutqdagi qo'llanishni to'liq aks ettira olmaydi. Shu jihatdan korpus lingvistikasi leksikografiyani boyituvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. T. McEnery va A. Hardie korpus ma'lumotlari lug'at tuzishda real til qo'llanishini hisobga olish imkonini berishini ta'kidlaydilar [6].

Leksikografik amaliyotda antroponimlarning tavsifi turli tillarda ularning tarixiy-madaniy rivojlanish xususiyatlariga bog'liq holda farqlanadi. Xususan, ingliz tilidagi antroponimlar ko'pincha etimologik va tarixiy izohlar asosida tavsiflanadi. Bu holat ingliz leksikografiyasining umumiy tendensiyasi bilan bog'liq bo'lib, unda so'zlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va fonetik evolyutsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ingliz

onomastik lugʻatlarida shaxs nomlari koʻpincha ularning etimologik kelib chiqishi va semantik mazmuni asosida izohlanadi. Masalan, *David* ismi “sevimli” maʼnosini anglatadi, *Michael* esa “xudoga oʻxshash” degan mazmunga ega boʻlib, ularning tarixiy va madaniy ildizlarini aks ettiradi. Shuningdek, *Margaret* ismi yunon tilidagi *margarites* (“marvarid”) soʻzidan kelib chiqqan. U estetik va diniy-madaniy mazmunga ega boʻlib, goʻzallik va qadr-qimmat konseptlarini ifodalaydi. Xristian anʼanalarida marvarid poklik va qimmatbaho qadriyat timsoli sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy ingliz tilida *Margaret* ismi klassik va hurmatga sazovor obraz bilan bogʻlanadi. Biroq ingliz tilida barcha antroponimlar diniy asosga ega emas. Masalan, *Victor* (gʻolib), *Felix* (baxtli), *Clara* (yorqin, tiniq), *Rose* (gul nomidan kelib chiqqan), *Taylor* (kasb nomidan kelib chiqqan), *Hunter* (ovchi) kabi nomlar ijtimoiy, estetik yoki kasbiy motivatsiyaga asoslangan boʻlib, ular insonning ijobiy fazilatlarini, tabiiy goʻzallik yoki kasb-hunar bilan bogʻliq semantik mazmunni ifodalaydi. Shu tarzda, ingliz onomastik lugʻatlarida antroponimlarga berilgan izohlar ularning semantik tuzilishi va madaniy kelib chiqishini yoritadi. Bunday izohlar antroponimlarning diniy yoki ijtimoiy ildizlarini ochib beradi, zamonaviy leksikografiyada ular asosan tarixiy-etimologik maʼlumot sifatida taqdim etiladi [5].

Oʻzbek tilida esa antroponimlarning lugʻatlarda berilishi koʻproq semantik va lingvomadaniy talqinga asoslanadi. Yaʼni, shaxs nomlari ularning ichki maʼnosi, motivatsiyasi va diniy-madaniy asoslari orqali izohlanadi. Masalan, *Dilshod* nomi “dili shod, quvonchli”, *Saodat* “baxt, farovonlik”, *Abdulloh* esa “Allohning bandasi” tarzida sharhlanadi. Bu holat oʻzbek tilida nomlash jarayonining aksiologik va estetik tamoyillarga asoslanganligini koʻrsatadi. Shuningdek, koʻplab antroponimlar islomiy anʼanalar bilan bogʻliq boʻlib, ularning izohida diniy komponent muhim oʻrin egallaydi. Bu esa oʻzbek leksikografiyasida lingvomadaniy yondashuvning ustuvorligini namoyon etadi. Mazkur farqlarni ilmiy jihatdan izohlashda leksikografiya va korpus lingvistikasi oʻrtasidagi metodologik tafovutni hisobga olish zarur. Anʼanaviy lugʻatlar koʻpincha normativ va statik xarakterga ega boʻlib, ular til birliklarining ideal yoki tarixiy modelini aks ettiradi. Biroq korpus lingvistikasi tilni real nutq materiallari asosida tahlil qilishga imkon beradi. J. Sinclair taʼkidlaganidek, til birliklarini ularning haqiqiy qoʻllanishi orqali oʻrganish lingvistik tavsifning aniqligini oshiradi [8.6].

Shu nuqtai nazardan, korpus tahlili antroponimlarning nafaqat maʼnosini, balki ularning kommunikativ funksiyasini ham ochib beradi. Masalan, ingliz korpuslarida *John* yoki *Michael* nomlari koʻpincha oddiy identifikatsiya vositasi sifatida, qoʻshimcha semantik yuklamasiz qoʻllanadi. Oʻzbek matnlarida esa *Dilshod aka*, *Saodat opa* kabi birikmalar uchraydi, bu yerda antroponimlar ijtimoiy-madaniy munosabatlarni yaʼni yaqinlikni, hurmatni ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi.

T. McEnery va A. Hardie korpus lingvistikasi maʼlumotlari lugʻat tuzishda real til qoʻllanishini hisobga olish imkonini berishini taʼkidlaydilar [4.9-10]. Demak, korpus maʼlumotlari anʼanaviy leksikografiyani toʻldiruvchi va boyituvchi empirik asos sifatida

xizmat qiladi. Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning leksikografik tavsifidagi farqlar bir tomondan tarixiy-etimologik yondashuv (ingliz tili), ikkinchi tomondan esa semantik va lingvomadaniy yondashuv (o'zbek tili) ustuvorligi bilan izohlanadi. Korpus lingvistikasi esa ushbu tavsiflarni real nutq asosida tekshirish va chuqurlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy ilmiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ham lingvomadaniy yondashuv rivojlanib bormoqda. D.U. Ashurova lingvokulturologiya doirasida til birliklari, jumladan, antroponimlar milliy madaniyatni aks ettiruvchi vosita ekanligini qayd etadi [1.25]. Bu esa o'zbek antroponimlarini faqat nominativ birlik sifatida emas, balki madaniy axborot tashuvchisi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, antroponimlarni korpus lingvistikasi asosida o'rganish ularning semantik, funksional va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Antroponimlar lingvomadaniy birlik sifatida muhim ahamiyatga ega. Ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu xususiyatlar antroponimlarni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali jamiyatning qadriyatlar tizimi, diniy qarashlari va mentaliteti ifodalanadi. Korpus lingvistikasi bu jarayonda muhim vosita u nazariy ma'lumotlarni empirik dalillar bilan mustahkamlaydi, leksikografik tavsifni boyitadi, real til qo'llanishini ochib beradi. Shu sababli, zamonaviy leksikografiyada korpus yondashuvini qo'llash zarur. Ingliz va o'zbek tillari materialida olib borilgan qiyosiy tahlil esa bu birliklarning milliy o'ziga xosligini aniqlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, korpus lingvistikasi yondashuvi zamonaviy leksikografiya va lingvokulturologiya tadqiqotlarida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova D.U. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent, 2013.
2. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: CUP, 1998.
3. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: CUP, 2003.
4. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. – London, 1978.
5. Hanks P., Hodges F., Hardcastle K. Oxford Dictionary of First Names (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press. 2006.
6. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: CUP, 2012.
7. Nida E. Language and Culture. – Leiden: Brill, 2001.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent, 2006.
9. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
10. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.
11. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультуроология. Наманган- 2017. Б.59.
12. Wierzbicka A. Semantics, Culture and Cognition. – Oxford: OUP, 1992.